

UDK: 338.48(575.1):005.745

Turistik klasterlarni shakllantirishda xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti

UrDU "Turizm va mehmondo'stlik" yo'nalishi magistranti
Matsapayeva Xilola Bekchan qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik klasterlarni shakllantirish jarayoni, uning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Xalqaro tajribada turizmni rivojlantirishda klaster yondashuvining afzalliklari, jumladan, hududiy turizm tarmoqlarini integratsiyalash, xizmatlar sifatini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston amaliyotida turizm klasterlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, davlat dasturlari va mintaqaviy loyihalar misolida ularning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari turistik klasterlarning iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va hududiy turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Turistik klaster, xalqaro tajriba, O'zbekiston, hududiy rivojlanish, turizm, integratsiya, raqobatbardoshlik, xizmatlar sifati.

Abstract: This article examines the process of forming tourism clusters, its theoretical foundations, and practical mechanisms. The advantages of the cluster approach in tourism development based on international experience are analyzed, including factors such as integration of regional tourism networks, improvement of service quality, and enhancement of competitiveness. Furthermore, the effectiveness of ongoing reforms, state programs, and regional projects aimed at creating tourism clusters in Uzbekistan is demonstrated. The research results confirm that tourism clusters can contribute to economic growth, create new jobs, and increase the tourism potential of the region.

Key words: Tourism cluster, international experience, Uzbekistan, regional development, tourism, integration, competitiveness, service quality.

Аннотация: В данной статье освещается процесс формирования туристических кластеров, его теоретические основы и практические механизмы.

Проанализированы преимущества кластерного подхода в развитии туризма в международной практике, в том числе факторы интеграции региональных туристических сетей, повышения качества услуг и усиления конкурентоспособности. Также на примере проводимых в Узбекистане реформ по созданию туристических кластеров, государственных программ и региональных проектов продемонстрирована их эффективность. Результаты исследования подтверждают, что туристические кластеры могут способствовать экономическому росту, созданию новых рабочих мест и повышению туристического потенциала региона.

Ключевые слова: Туристический кластер, международный опыт, Узбекистан, региональное развитие, туризм, интеграция, конкурентоспособность, качество услуг.

Kirish: So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha turizm sohasi iqtisodiy o‘rta o‘rta muhim darajalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Turistik xizmatlar global miqyosda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etib, yangi ish o‘rinlari yaratishda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda va madaniy merosni asrab-avaylashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, turistik klasterlarni shakllantirish jarayoni turizm sohasida va butun iqtisodiy tizimda innovatsion yondashuv sifatida ko‘riladi[1].

Xalqaro tajribada turizm klasterlari yirik turistik hududlarni kompleks rivojlantirishda, infratuzilmani yaxshilashda, mahalliy biznes subektlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida turistik klasterlar hududiy brending, barqaror turizm va xizmatlar sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirish, hududiy turizm klasterlarini shakllantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, “Turizmni rivojlantirish strategiyasi” doirasida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va boshqa hududlarda zamonaviy turizm klasterlarini barpo etish choralari ko‘rilmoqda. Shunday qilib, turistik klasterlarni shakllantirishda xalqaro tajribani o‘rganish va uni O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etish, turizm sohasining

raqobatbardoshligini ta'minlash hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega[2].

Asosiy qism: Turizm bugungi globallashuv davrida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasida band bo'lgan aholining ulushi yil sayin ortib bormoqda va bu soha xalqaro savdoning ham muhim qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, turistik klaster yondashuvi turizmni kompleks rivojlantirish, hududiy salohiyatni to'liq ishga solish hamda xizmatlar sifatini xalqaro darajaga ko'tarishda samarali mexanizm sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar: Italiya, Ispaniya, Fransiya, Turkiya, Malayziya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda turistik klasterlar milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylangan. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, klaster asosida tashkil qilingan turizm tizimi hududiy brend yaratish, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xalqaro va O'zbekiston tajribasini taqqoslash jadvali

1-Jadval.

Davlat / Hudud	Klaster turi	Asosiy yo'nalishlar	Xususiyatlari
Italiya (Toskana)	Madaniy-gastronomik	Vinochilik, gastronomiya, tarixiy obidalar	Madaniy meros va gastronomiyani uyg'unlashtirgan
Fransiya (Parij)	Madaniy-muzey klasteri	Muzeylar, teatrlar, moda, gastronomiya	Madaniyat markaziga yo'naltirilgan xizmatlar
AQSh (Florida)	Dam olish-klaster	Plyajlar, mehmonxonalar, ko'ngilochar maskanlar	Dengiz turizmi va servis xizmatlariga asoslangan
Janubiy Koreya	Innovatsion texnologik	Zamonaviy infratuzilma, xalqaro marketing	Yuqori texnologiyalar va servis sifatiga urg'u

Davlat / Hudud	Klaster turi	Asosiy yo‘nalishlar	Xususiyatlari
O‘zbekiston (Samarqand, Buxoro, Xiva)	Madaniy- tarixiy klaster	Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, milliy hunarmandchilik	UNESCO merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO). *Tourism Highlights 2023 Edition*. Madrid: UNWTO, 2023.
 – 120 b. ma’lumotlari.

O‘zbekiston misolida esa boy madaniy meros, tarixiy shaharlar, tabiat go‘shalarining mavjudligi turistik klasterlar uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Davlat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilma qurish, xizmatlar eksportini kengaytirish va hududiy turizmni rivojlantirish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilayotgani tadqiqotning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli, turistik klasterlarni shakllantirishda xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish masalasi ilmiy hamda amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir.

Turistik klaster - hududiy turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ta’lim muassasalari, davlat idoralari va boshqa manfaatdor tomonlarning o‘zaro hamkorligi asosida tashkil topgan tizimdir. Klaster yondashuvi turizmni alohida korxona emas, ya’ni bir butun hududiy kompleks sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, xizmatlar sifati oshadi, yangi innovatsion g‘oyalar joriy qilinadi va hududiy raqobatbardoshlik kuchayadi.

O‘zbekistondagi turizm klasterlarining yo‘nalishlari jadvali

2-Jadval.

Hudud	Asosiy turizm turi	Xizmatlar yo‘nalishi
Samarqand	Madaniy, ziyorat turizmi	Tarixiy obidalar, milliy taomlar
Buxoro	Diniy va tarixiy turizm	Islomiy meros, qadimiy shahar
Xiva	Madaniy-tarixiy turizm	Ichan qal’a, xalq san’ati

Hudud	Asosiy turizm turi	Xizmatlar yo‘nalishi
Toshkent	Biznes va kongress turizm	Konferensiyalar, zamonaviy servis
Farg‘ona	Ekoturizm va hunarmandchilik	Qo‘qon, Marg‘ilon ipakchilik

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO). *Tourism Highlights 2023 Edition*. Madrid: UNWTO, 2023.
 – 120 b. ma’lumotlari.

Jahon miqyosida turistik klasterlar ko‘plab quyidagi muvaffaqiyatli natijalar bergan:

- Italiyada “Toskana” klasteri vinochilik, gastronomiya va madaniy turizmni birlashtirib, yirik iqtisodiy natijalar bermoqda;
- Ispaniyada Kosta-Brava va Andalusiya hududlari klaster sifatida rivojlantirilib, dengiz bo‘yidagi kurortlar, tarixiy obidalar va gastronomik turizmni uyg‘unlashtirgan;
- Turkiyada Antaliya va Istanbul klasterlari turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mehmonxona tarmog‘ini kengaytirish va hududiy brend yaratishda samarali model bo‘lib xizmat qilmoqda;
- Janubiy Koreyada esa turizm klasterlari raqamli texnologiyalar, innovatsion marketing va davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlanmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli klasterlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- kuchli hududiy brend yaratadi;
- mahalliy aholi bandligini oshiradi;
- xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtiradi;
- turizmni boshqa tarmoqlar bilan integratsiya qiladi.

O‘zbekistonda ham turistik klasterlarni shakllantirish bo‘yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda:

- Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tarixiy turizm klasterlari sifatida rivojlantirilmoqda. Ular “Buyuk Ipak yo‘li” konsepsiyasi doirasida xalqaro miqyosda targ‘ib qilinmoqda;
- Farg‘ona vodiysida hunarmandchilik, milliy an‘ana va gastronomiya asosidagi turizm klasterlari tashkil etilmoqda;

- Toshkent shahrida zamonaviy biznes-turizm, konferensiya va ko'rgazma xizmatlariga yo'naltirilgan klasterlar shakllanmoqda;

- Zomin, Chimyon va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida ekoturizm va tog' turizmi klasterlari barpo etilmoqda.

Davlat tomonidan qabul qilingan "2023–2027-yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi" klaster yondashuvini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu orqali transport va mehmonxona infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda va turistik xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsiyalar joriy etilmoqda[3].

Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyotini solishtirganimizda, quyidagi umumiylik va farqlarni ko'rish mumkin:

- O'zbekiston ko'proq tarixiy-madaniy va ekologik turizmga tayanmoqda, G'arb davlatlari esa gastronomik va plyaj turizmida kuchli o'rin tutadi;

- xorijiy mamlakatlarda xususiy sektor faolroq, O'zbekistonda esa davlatning roli yuqoriroq bo'ladi;

- raqamli texnologiyalarni joriy etishda O'zbekiston hali rivojlanish bosqichida, xalqaro tajribada esa ushbu jarayon keng qo'llanilgan.

Biroq, O'zbekistonning geografik joylashuvi va boy madaniy merosi uni jahon turizm bozorida mustahkam o'rin egallash imkoniyatiga ega qiladi.

Muhokama: Turistik klasterlarni shakllantirish jarayonida xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv turizmni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Klasterlar nafaqat turizm infratuzilmasini yaxshilash, balki xizmatlar sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro tajribadan ma'lum bo'ldiki, muvaffaqiyatli turistik klasterlar quyidagi omillarga asoslanadi:

- **davlat va xususiy sektor hamkorligi** - klasterning barqaror ishlashi uchun muhim shartidir;

- **hududiy brend yaratish** - turistik mahsulotni xalqaro miqyosda tanitish imkonini beradi;

- **innovatsion texnologiyalarni joriy etish** - raqamli marketing, onlayn bronlash tizimlari va "aqlli turizm" xizmatlari orqali turizm samaradorligi oshiriladi;

- **mahalliy aholining jalb etilishi** – klaster samaradorligi bevosita hudud aholisi faolligiga bogʻliq boʻladi[4].

Oʻzbekiston amaliyotida turistik klasterlar hali shakllanish bosqichida boʻlsa-da, davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalar va dasturlar bu jarayonni tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, transport va mehmonxona infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xizmatlar sifatining xalqaro standartlarga toʻliq mos kelmasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi pastligi, xususi sektor va davlat oʻrtasida samarali hamkorlikning yetarli emasligi kabi ayrim muammolar ham mavjud. Biroq, Oʻzbekistonning tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va geografik joylashuvi uning turizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega ekanini koʻrsatadi. Agar xalqaro tajriba asosida samarali klaster modeli tatbiq etilsa, mamlakat mintaqaviy va jahon turizm bozorida mustahkam oʻrin egallashi mumkin.

Xulosa va takliflar: Turistik klasterlarni shakllantirish xalqaro miqyosda oʻzini toʻliq oqlagan yondashuv boʻlib, turizmni kompleks rivojlantirish, hududiy brend yaratish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekiston amaliyotida ham turistik klasterlar asta-sekin shakllanmoqda va ushbu jarayon davlat strategiyalari orqali qoʻllab-quvvatlanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, muvaffaqiyatli klaster modeli davlat-xususi sheriklik, innovatsion texnologiyalar, mahalliy aholi ishtiroki va hududiy integratsiyaga tayanishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turistik klasterlarni shakllantirishda xalqaro tajribalarni Oʻzbekiston amaliyotida qoʻllash uchun quyidagi yoʻnalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Oʻzbekiston turistik klasterlarini shakllantirishda **xalqaro tajribani chuqur oʻrganib, mahalliy sharoitga moslashtirish;**

- **davlat va xususi sektor hamkorligini kuchaytirish** orqali infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirish;

- **raqamli texnologiyalarning** onlayn bronlash tizimlari, virtual gid xizmatlari va mobil ilovalar kabi yoʻnalishlarini keng joriy etish;

- har bir hudud uchun **turistik brend** ishlab chiqish va uni xalqaro miqyosda faol targʻib qilish;

- **mahalliy aholining faol ishtirokini ta'minlash**, xususan, hunarmandchilik, milliy taomlar, folklor san'ati va mehmondo'stlik xizmatlarini klaster tarkibiga jalb qilish;

- turistik klasterlarni rivojlantirishda **ekoturizm va barqaror turizm** tamoyillariga alohida e'tibor qaratish.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekistonning turizm sohasida raqobatbardoshligi ortib, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim tarmoqqa aylanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5611-sonli qarori.

3. "2023-2027-yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasi". – T.: Turizm va madaniy meros vazirligi, 2023.

4. Jo'rayev A., Mamatqulov N. **Turizm asoslari**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 280 b.

5. Normatov B. **O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish yo'llari**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 240 b.

6. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO). Tourism Highlights 2023 Edition. Madrid: UNWTO, 2023. – 120 b.